



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **17,3** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,6** mingtaga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **16,9** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023- yilning yanvar-sentabrida **3504** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **107** taga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2019-2023- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.		2023- y.
21 918	Jizzax viloyati	17 329
6325	Jizzax sh	4500
707	Arnasoy	621
1347	Baxmal	1221
1944	G'allaorol	1622
3369	Sharof Rashidov t.	2332
934	Do'stlik	744
1779	Zomin	1495
1114	Zarbdor	908
604	Zafarobod	515
770	Mirzacho'l	663
956	Paxtakor	909
1579	Forish.	1366
490	Yangiobod	433

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **17 329** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3504** tani tashkil etdi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Jizzax shahrida **692** tani yoki jamiga nisbatan **19,7** % ni tashkil etdi.

1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

21 918

2022- y.

17 329

2023- y.

20 270

2021- y.

16 953

2020- y.

13 698



2019- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Jizzax shahar	23,5
Arnasoy	23,3
G'allaorol	13,9
G'allaorol	14,9
Do'stlik	13,6
Do'stlik	16,8
Zomin	13,9
Mirzacho'l	19,0
Mirzacho'l	20,5
Zafarobod	17,9
Paxtakor	16,3
Forish	17,7
Yangiobod	19,9

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1 oktabr holatiga, birlikda



2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **16,9** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **0,5** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida **23,5** birlik, Yangiobod tumanida **19,9** birlik, Forish tumanida **17,7** birlik, Arnasoy tumanida **23,3** birlik, Mirzacho'l tumanida **20,5** birlik, Paxtakor tumanida **16,3** birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Jizzax shahri
– 23,5 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Zafarobod tumani
– 17,9 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Sharof Rashidov tumani
– 13,6 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahri **23,5** birlik, Yangiobod tumanida **19,9** birlik, Forish tumanida **17,7** birlik, Arnasoy tumanida **23,3** birlik, Mirzacho'l tumanida **20,5** birlik, Paxtakor tumanida **16,3** birlik, Do'stlik tumanida **16,8** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023- yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Yangiobod tumani

19,9

Yangiobod tumani

19,9

Mirzacho'l tumani

20,5

Jizzax shahri

23,5

Arnasoy tumani

23,3

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

811	Jizzax shahri	692
101	Arnasoy	146
272	Baxmal	270
400	G'allaorol	425
431	Sharof Rashidov	350
250	Do'stlik	145
331	Zomin	351
211	Zarbdor	207
116	Zafarobod	135
144	Mirzacho'l	159
167	Paxtakor	228
287	Forish	301
90	Yangiobod	95

2023- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jizzax shahri – **19,7** %, G'allaorol – **12,1** %, Sharof Rashidov va Zomin – **10,0** %, Forish – **8,6** %, Baxmal – **7,7** %, Paxtakor – **6,5** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **1068** ta, sanoatda **667** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **941** ta yangidan tashkil etilgan.

Tumanlar va shahar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida **692** ta, G'allaorol tumanida **425** ta, Sharof Rashidov **350** ta va Zomin tumanida **351** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **16 786** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **5382** (yoki **32,1** %) ta, xizmatlar sohasida – **2967** (yoki **17,7** %) ta, sanoat sohasida – **3362** (yoki **20,0** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3952** (yoki **23,5** %) ta va qurilish sohasida – **1123** (yoki **6,7** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAXMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2023- yilning yanvar-sentabrda YAXM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **74,2 %** ni tashkil qildi




2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,7 %** ni, yo'lovchi aylanmasida **97,7 %** ni, yo'lovchi tashishda **95,2 %** ni, qurilishda **94,0 %**, yuk aylanmasida **98,3 %** ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Jizzax shahri	1 276,0
Arnasoy	201,1
Baxmal	87,7
G'allaorol	107,1
Sharof Rashidov	282,1
Do'stlik	273,3
Zomin	227,4
Zarbdor	83,6
Zafarobod	55,3
Mirzacho'l	85,7
Paxtakor	312,0
Forish	409,6
Yangiobod	48,5

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3449,1** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (**1276,0** mlrd. so'm), Forish (**409,6** mlrd. so'm), Paxtakor (**312,8** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**282,1** mlrd. so'm) va Do'stlik (**273,3** mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Yangiobod tumani (**48,5** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

2023- yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 24,2 % ni tashkil etdi.




2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Arnasoy , Baxmal, Mirzacho‘l, Yangiobod tumanlarida (100,0 %), Forish tumanida (92,5 %), Sharof Rashidov tumanida (66,4 %), Paxtakor tumanida (60,2 %), Zomin tumanida (43,9 %), Do‘stlik tumanida (39,1 %), Zarbdor tumanida (31,0 %) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Yangiobod	19,2	100,0
Forish	132,9	92,5
Paxtakor	142,4	60,2
Mirzacho'l	38,9	100,0
Zafarobod	51,6	4,5
Zarbdor	89,2	31,0
Zomin	197,9	43,9
Do'stlik	72,4	39,1
Sharof Rashidov	488,4	66,4
G'allaorol	143,9	1,5
Baxmal	104,5	100,0
Arnasoy	45,0	100,0
Jizzax sh.	1 148,6	45,6

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2675,0** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **94,0** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati yanvar-sentabr oylarida **105,0** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (**1148,6** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**488,4** mlrd. so'm), Zomin (**197,9** mln. so'm) G'allaorol (**143,9** mlrd so'm) Paxtakor (**142,4** mlrd. so'm), Forish (**132,9** mlrd. so'm) hamda Baxmal (**104,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **7592,4** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **73,0** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati **134,9** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Forish tumani (**3156,7** mlrd. so'm), G'allaorol (**1141,8** mlrd so'm), Jizzax shahri (**1067,1** mlrd so'm), Sharof Rashidov (**764,0** mlrd. so'm), Mirzacho'l (**452,6** mlrd. so'm), Baxmal (**325,7** mlrds. so'm), Zomin (**276,7** mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




■ hajmi, mln. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **18634,1** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,6** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati **105,6** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Baxmal (**2750,5** mlrd. so'm), G'allaorol (**2713,0** mlrd. so'm), Zomin (**1831,0** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**1757,3** mlrd. so'm), Do'stlik (**1587,0** mlrd. so'm), Zarbdor (**1383,2** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yangiobod	472,0	99,9
Forish	1054,4	100,0
Paxtakor	1242,0	96,6
Mirzacho'l	999,4	99,8
Zafarobod	1036,6	100,0
Zarbdor	1383,2	100,0
Zomin	1831,0	95,7
Do'stlik	1587,0	94,3
Sharof Rashidov	1757,3	99,3
G'allaorol	2713,0	99,9
Baxmal	2750,5	100,0
Arnasoy	991,1	100,0
Jizzax sh.	269,3	99,4


hajmi, trln. so'mda ——— ↑
ulushi, % da ——— ↑

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **5312,5** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,7** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati **102,9** % ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi


Yangiobod	79,2	99,0
Forish	280,9	99,4
Paxtakor	325,8	73,6
Mirzacho'l	198,7	99,4
Zafarobod	124,8	99,0
Zarbdor	323,4	99,5
Zomin	552,9	83,3
Do'stlik	278,2	99,4
Sharof Rashidov	650,6	99,0
G'allaorol	550,4	96,3
Baxmal	629,3	99,5
Arnasoy	129,1	98,9
Jizzax sh.	1189,3	88,6

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (**1189,3** mlrd. so'm), G'allaorol (**1189,3** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**650,4** mlrd. so'm), Baxmal (**629,3** mlrd. so'm), Paxtakor (**325,8** mlrd. so'm), Zarbdor (**323,4** mlrd. so'm) va Zomin (**552,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018 va 2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm


hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4181,8** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **59,1 %** ini va o'sish sur'ati **109,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (**1150,0** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**802,7** mlrd. so'm), G'allaorol (**446,4** mlrd. so'm), Zomin (**389,3** mlrd. so'm), Baxmal (**317,7** mlrd. so'm) va Forish (**238,5** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari





Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **50,7 %** (**481,2** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **27,7 %** (**237,9** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda – **7,0 %** (**8,8** mlrd. so'm) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **0,3 %** (**220,5** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar **0,0 %** (**62,3** mlrd so'm) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **56030,8** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **42,6** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiobod	1330,3	100,0
Forish	5366,9	78,6
Paxtakor	9920,3	100,0
Mirzacho‘l	359,3	59,6
Zafarobod	1361,3	100,0
Zarbdor	1581,0	12,7
Zomin	5654,1	85,9
Do‘stlik	4798,8	38,2
Sharof Rashidov	1524,9	33,7
G‘allaorol	2603,2	41,3
Baxmal	2929,6	100,0
Arnasoy	3519,0	100,0
Jizzax sh.	15058,7	24,1


hajmi, ming. AQSH dollar

ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Arnasoy, Baxmal, Zafarobod, Paxtakor, Yangiobod – **100,0** %, Zomin tumanida – **85,9** %, Forish tumanida – **78,6** %, Mirzacho‘l tumanida – **59,6** % ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Zarbdor tumanida – **12,7** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **527,2** million AQSH dollarini yoki jami importning **58,7** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Jizzax shahri, Arnasoy, Baxmal, Mirzacho'l, Forish, Yangiobod tumanlarida – **100,0** %, Sharof Rashidov tumanida – **94,3** %, Do'stlik tumanida – **89,1** %, Paxtakor tumanida 81,3%, Zomin tumanida – **80,6** % ni tashkil etdi.

Jizzax shahri	96,0
Arnasoy	90,5
Baxmal	82,1
G'allaorol	75,6
Sharof Rashidov	68,2
Do'stlik	63,5
Zomin	50,6
Zarbdor	49,6
Zafarobod	48,2
Mirzacho'l	45,2
Paxtakor	44,6
Forish	36,8
Yangiobod	36,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



97,6 %

Yuk
tashishda

2023- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,6 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,3 %** ni tashkil qildi.



98,3 %

Yuk
aylanmasida

2023- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,3 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **131,3 %** ni tashkil qildi.



95,2 %

Yo'lovchi
tashishda

2023- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil qildi.




97,7 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,7 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,3 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 739 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 248 (33,5 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 471 (63,8 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 20 (2,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 40,3 % (299 ta), xizmatlar sohasida – 25,9 % (191 ta), sanoatda – 10,6 % (79 ta), qurilishda – 9,4 % (70 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,7 % (101 ta)ni tashkil etdi.

2023- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

225	Jizzax shahar	94,1
23	Arnasoy	100,0
50	Baxmal	100,0
54	G'allaorol	98,2
100	Sharof Rashidov	94,3
34	Do'stlik	94,4
56	Zomin	91,8
36	Zarbdor	100,0
23	Zafarobod	100,0
20	Mirzacho'l	83,3
40	Paxtakor	100,0
64	Forish	100,0
15	Yangiobod	88,2


Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (**225 ta**), Forish (**60 ta**), Sharof Rashidov (**100 ta**), Zomin (**56 ta**), G'allaorol (**54 ta**) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning III choragida **101** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragiga kelib esa 248 taga yetgan yoki 2018- yilning III choragiga nisbatan **147** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilda **225** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabrida **470** ta yoki **245** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2018- yilda **83** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **22** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **61** taga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning III choragida **276** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragiga kelib esa **450** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **174** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning III choragida **100** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragida **196** ta yoki **96** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2018- yilning III choragida **33** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **13** tani tashkil etib, **20** taga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III choragida **10,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **29,9** % ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **19,0**% birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **65,2** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragida **52,5** % yoki **12,7** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **25,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **21,4** % ga yetgan yoki **3,6** % ga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III choragida **33,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **37,9** % ga yetgan yoki 2018- yilning III choragida nisbatan **4,3** % birlik ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III choragida **65,1** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabrida **56,0** % yoki **9,1** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilning III choragida **1,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **6,1** % yoki **4,8** % birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning III choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda – **42,3** % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – **17,7** % ni, xizmatlar sohasida – **23,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda – **39,4** % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – **12,3** % ni, xizmatlar sohasida – **27,5** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda – **36,4** % ni, qurilishda – **27,3** % ni, sanoatda – **18,2** % ni, xizmatda – **18,2** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **44,6** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **14,7** % ni, va xizmatlar – **25,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **39,0** % ni, xizmatlar – **27,7** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **12,0** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **38,9** % ni sanoat va qurilishda – **22,2** %, xizmatlar sohasida – **16,7** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	26,8	15,8	41,3
Band bo'lganlar soni	14,4	21,6	28,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	19,5	20,8	11,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	16,9	21,8	11,6
Raqobat muhiti	22,5	19,9	7,6

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	26,9	17,3	21,3
Band bo'lganlar soni	14,7	22,1	18,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	18,4	20,7	19,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	17,3	21,0	23,0
Raqobat muhiti	22,8	18,9	18,0


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli